



**TURLI BAXSHILARNING “ALPOMISH” DOSTONI AYTISH
MAKTABLARI: JANR VA USLUB TAHLILI.**

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va

jismoniy madaniyat” kafedrası o‘qituvchisi

Urinov Islombek Olimjon o‘g‘li

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Doston ijrochiligi kafedrası Baxshichilik va

dostonchilik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich

talabasi

Shodiyev Eldor Boyg‘uchqor o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek baxshichilik maktablarining yirik vakillari — Po‘lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Sayidmurod Panoh o‘g‘li, Berdiyori Pirimqul o‘g‘li hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Alpomish” dostoni aytish an‘analari janr, kompozitsiya va uslubiy xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot baxshilar repertuari, obraz yaratish mahorati, ohang tuzilishi va mahalliy maktablarning umumiy poetik tamoyillariga tayanadi.

Abstract: In this article, the tradition of telling the epic “Alpomish” by the great representatives of the 20th century Uzbek Bakhshi schools - Polkan poet and Ergash Jumanbulbul son, Sayidmurad Panoh son, Berdiyari Pirimkul son and Fazil Yoldosh son - is analyzed from the point of view of genre, composition and stylistic features. The study relies on the repertoire of bakhshis, the skill of image creation, the structure of melody and the general poetic principles of local schools.



Kalit soʻzlar: Alpomish, doston, syujet, xalq ijodi, sanʼat, anʼana madaniyat-maʼrifat.

Keywords: Alpomish, epic, plot, folk art, art, tradition, culture-enlightenment

Oʻzbek xalq ijodi yodgorliklariga kiruvchi dostonlarimizdan biri, Alpomish dostoni azal azaldan ulugʻ ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan. Bizgacha yetib kelgan bu dostonning taʼsirli va murakkab Syujeti oʻzgarmagan, ammo bu dostonning deyarli oltmishdan ortiq turi bor.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Termiz shahrida oʻtkazilgan xalqaro baxshichilik festivalining tantanali ochilishidagi nutqida shunday fikrlarni bildirgan edi: “Tengsiz maʼnaviy boyligimiz boʻlmish mumtoz sanʼatni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilgʻor fikrli olimlar va sanʼatkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”.[1]

“Alpomish” dostoni oʻzbek ogʻzaki dostonchilik anʼanasining eng yuksak choʻqqilaridan biri boʻlib, uning aytish maktablari xalqning madaniy-maʼnaviy merosini aks ettiradi. Har bir baxshi oʻz maktabi, ijro texnikasi va estetik qarashlariga qarab “Alpomish”ni yangi badiiy talqin bilan boyitadi. Tadqiqotning maqsadi — toʻrt mashhur baxshi talqinlarining janr va uslub xususiyatlarini solishtirishdir.

Bugungi maqolamizga shu oltmishdan ortiq, turning uch tasining Mazmunini oʻrganamiz, bu turlarda Alpomish dostonining mazmunini Hamda syujeti oʻzgarmagan lekin ammo soʻz murakkabligi, maʼno jihatidan ham oʻzgarga

Mazkur ilmiy maqolada asosan bugungi kunda faoliyat yuritgan toʻrt mashhur dostonchining “Alpomish” aytish anʼanalari tahlil qilinadi:

1. Poʻlkan shoir va Ergash Jumanbulbul oʻgʻli maktabi
2. Sayidmurod Panoh oʻgʻli maktabi
3. Berdiyori Pirimqul oʻgʻli maktabi
4. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli maktabi



Po'ltan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li aytish turi. Ularning har biri dostonning epik ildizlarini saqlab qolgan holda, o'z maktabiga xos badiiy-estetik tamoyillarni kiritgan.

Po'ltan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li Surxondaryo-Qashqadaryo epik maktabining eng yetuk vakillaridan biri hisoblanadi. Uning doston variantida, syujet **izchil epik rivoyat** asosida ketadi. Epik vaqtning bosqichma-bosqich ochilishi kuzatiladi va Alpomishning bolalikdan pahlavonlikka o'tish jarayoni eng batafsil yoritiladi. Po'ltan shoir ijrosi esa biroz qisqaroq, ammo jang sahnalari kengaytirilgan bo'ladi.

Qirq ming uyli qo'ng'irotda Qulqorabek degan o'tdi undan Jo'lqara o'tdi. Jo'lqaraning o'g'li Boynazarbekka navbat keldi, Qo'ng'irotda bek bo'ldi Boynazar ajali yetib Boynazar o'ldi, yurti be'ega qoldi, O'nto'rt quda keldi, sakkiz chorhokim Ham keldi, chap otaliq, o'ng otaliq beklar keldi, hazrati Xizr keldi, davlat keldi, yurtni qidirib yeti Qalandar keldi, Xudodan amr bo'ldi, Boybo'riga yurtning shoxligi qoldi.

Boybo'ri ko'k toshga mindi. Jarchilar har tarafga Bozorga qishloqqa "Zamon – zamon Boybo'rining zamoni" deb ma'lum qildi El yig'ilib podshoga qulluq bo'lsingga keldi behisob so'qimlardan so'ydi, o'choqlarni o'ydi, Amaldorlarni yig'ib, hammasiga erta bilan choy berdi, oqshom – palov, rang - barang sarpolarni egniga yopib tashladi. Ziyofat ustiga ziyofat, har qaysiga kiygizib yubordi sarponi qavat – qavat. Har qaysining oldida durum sari kallaqand qo'ydi. Shuytib amaldorlarniung amllarini Bir – bir ziyod qildi. Gunoxkorlarni, qamalib yotganlarni bir bir ozod qilib, uyiga jo'natdi. Boybo'rining Boysari degan ukasi bor edi. Qirq ming uylikdan Boysariga o'nbir ming enchi berdi. "shuning xiroji, boji, zakoti – xammasi o'zingniki". Boysari shuytib boy bo'ldi.

Bir kunlari qarib, qirqqa etdi. Ana endi akasi bilan ukasi qidirib ovga chiqdi, bir to'yga keldi. To'yga keldi-da hechkim otini ushlamadi. Bir Nazar degan qarindoshi –O'zing o'lsang moling besoxib qoladi, akang bo'lmasa,ukang



bo‘lmasa, — dedi. Ana endi boysari bilan boybo‘riga farzandning qadri o‘tdi, badani qop qora toloqqa o‘xshab chuykab ketdi, xech nima – arkoni davlat, shonu shavkat ko‘ziga ko‘rinmay ketdi.

O‘nming uyli qo‘ng‘irotida Xoldorbek degan bor edi. Shuni Boybo‘ri bilan Boysari uyiga aytib keldi. Ana endi uchovi maslahat qildi. Boybo‘ri Shundan so‘ng ellik tuya to‘n, un, bug‘doy, ovqat ortdi. “Ko‘rlar, shollar, gadoylar, devonalarga beramiz. Xazrati Shahimardonga borib, qirq kun chilla o‘tiramiz, o‘n kun etiqod o‘tiramiz, ziyorat qilamiz, borib undan farzant tilaymiz. Xudoy bermasa, tarki dunyo qilib xaj ketamiz”[2].

- Dedi. Qirq kun yo‘l yurib, shohimardonga bordi. Qo‘l qovushtirib, tazim qilib, jonu dilman bir so‘z dedi;

Kuyganimdan gapni gapga ulayman,
Shul buzrukda peshonamni silayman,
Avval xudoni o‘rtaga solib,
Murtozodan bir farzand tilayman.

Sayidmurod Panox o‘g‘li aytish turi. Sayidmurod Panoh o‘g‘li ijrosida doston **dramatik epika** shaklida namoyon bo‘ladi. Uning aytish uslubida quyidagilar ustuvor tez-tez keskin syujet burilishlari, kuchli dramatik qarama-qarshiliklar va dialoglar vositasida xarakter yaratishdan iborat.

Bu maktabda dostonning jangovar epizodlari kengaytiriladi, ijtimoiy ziddiyatlar markazga chiqariladi.

Cho‘lda ikki og‘ayni eliboy bor edi. Kattasining oti Boybo‘ri edi, kichigining oti boysari edi. Jami shularga qaraydigan o‘nming uyli qo‘ng‘irot edi. Boysin deyar eli shaxrini, boysunning podshosining otini yusufxon der edi. Yusufxon elga aytib qo‘yib edi; “harkimning bolasi bo‘lsa, to‘yga aytinglar, bolasi bo‘lmasa kelsa, urib-urib haydang”. Nogoh bir to‘yga boybo‘ri bilan boysari keldi. Buni ura olmadilar, osh torttilar. Bular oshni yeb, fotihani yuziga torttilar, to‘yxonada bir kal bor edi, Kal; — podshoning buyrug‘i shu; “bolasi bo‘lsa – qo‘ying, bolasi bo‘masa-urub-



urub haydang” — deb qo‘yuvdi, sizlarni urib so‘ka olmadik. Borsangiz, bolangizga olib borasiz,-deb dasturxondan suyaklarni olib, bularning beliga qistira boshladi. Bul ikkovi yo‘lga chiqdi, maslaxat qildi; “bizlar to‘yga kelmay ketaylik .Buning qilgan izasi yetmish besh kaltakdan ham yomon bo‘ldi”. Ikkovining ham bolasi yo‘q edi, bular, yig‘lab – yig‘lab borib, ko‘kragini nam yerga berib yotdi .Kunlardan bir kun bu ikkovining xotini ham yukli bo‘ldi. Oydan-oy, kundan-kun o‘tib, xotinlari tug‘arga yaqin bo‘lib qoldi[3].

Mana shunday qilib, shu tarzga O‘zgartirib aytgan. Ana endigi baxshimiz buni yanada boshqacharoq aytgan.

Berdiyori Pirimqul o‘g‘li baxshining aytish turi. Berdiyori baxshi ijrosida doston **bo‘limlarga qat’iy ajralgan**, har bo‘limda alohida epik vazifa belgilanadi va monolog va nasihatlar orqali epizodlar bir-biriga ulanadi. Bu maktab dostonni **epik-didaktik** shaklga yaqinlashtiradi.

Burungi zamonda Shashavat shaxrida Davonbiy degan podsho bor ekan. Davonbiy podshoning Boybo‘ri, boysari degan Ikki o‘g‘li bor ekan; Ravshanboy deganning, Ikki qizi bor edi. Bunday chiroyli qiz dunyoda Xech bo‘lmas edi. Davonbiy ikki o‘g‘liga Ravshanboyning qizlarini olib berdi: Kattasining oti Kuntugal edi, Uni katta o‘g‘li Boybo‘riga olib berdi; Kichkinasi Jontugal der edi, Uni kichkina o‘g‘li boysariga olib berdi. Ikki o‘g‘lini uylantirgandan so‘ng, bor dunyosini xam bo‘lib berdi;

Har o‘g‘liga o‘n sakkiz ombordan tilla tegdi, o‘ttiz kunlikdan qo‘y tegdi, To‘qson to‘qaydan yilqi tegdi. Shunda qultoy degan uyidagi qadrdon quli; “Mening qulligim bilinib qoldi”, — deb yig‘lab qoldi. Boybo‘ri turib; — Bor , menga tekkan yilqining izmini senga berdim, - dedi. Davonbiy; “o‘g‘illarimga podsholigimni bo‘lib berayin”, — deb Shashavat shahrini teng bo‘ldi; Shuning yarmiga boysun deb ot qo‘ydi; Yarmiga qo‘ng‘irot deb ot qo‘ydi; Boysun eliga boysarini, Qo‘ng‘irot eliga Boybo‘rini podsho qildi. Shunda ikki o‘g‘liga Aytdi; Boysun, Boysundan qiz olma, qo‘ng‘irot dan ol, Qong‘irot, qo‘ng‘irot dan Qiz olma, Boysundan ol, Bir –



biringizdan Ajralib ketmanglar. Davonbiy o‘lib ketdi. Ikki o‘g‘li podsho bo‘lib keta berdi. Yoshi o‘ttiz Uchga kelguncha, Ikkovi ham farzant ko‘rmadi. Shu vaqtlarda bir odam To‘y qildim. Shunda hamma odam bordi; qazi bilan qarta berdi. Boybo‘ri bilan Boysari borgan edi, Uzun ichak qo‘ydi, oldiga o‘tmaydigan pichoq qoydi. Boybo‘ri bilan boysarining achig‘i chiqib, to‘y qilganni chaqirib aytdi; — Bizlar podsho bo‘lsak, Nimaga shuni qo‘yasan?! To‘y qilgan aytdi: Taqsir, sizlar podshosizlar, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytaman. Podsholar; — kechdik, — dedi. Shunda aytdi: - men to‘y qilib yotibman: Bir aytganga beraman, Bir qaytganga beraman. Sizlarning uyingizda noz-ne‘matning, hammasi bor, Sizlar aytmaydilar: yana sizlarning farzandlaringiz yo‘q, Sizlardan qaytmaydi ham.

Shunda farzandsizlik tasir qilib, ikki podsho cho‘l-biyobonga chiqib ketdi. Cho‘lda yurgan edi, bir kiyikka yo‘liqdi; Ikkovi kiyikni ushlab oldi. Qarasa, kiyik bug‘oz ekan. “bizning xotinlarimiz ham shunday bo‘lsa edi”, - deb yaxshi niyat qilib qo‘yib yubordi. Shunda lekin xudoning raxmi keldi. Shu kecha xotinlari bilan yotdi, xotinlari bug‘oz bo‘ldi[4]. Ikkovi ham farzand ko‘radi Berdiyori baxshi shu mazmunda aytgan.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytish turi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li — XX asr o‘zbek baxshilarining eng yiriklaridan bo‘lib, uning “Alpomish” varianti hajm jihatidan eng to‘liq variantlardan biridir. Janriy xususiyatlari epik syujetning **eng keng** shaklda berilishi, dramatik, lirik va satirik parchalarning uyg‘unligi va ritmik rekitativ bilan qo‘shiqning almashib borishi.

Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dabonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘i ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, boybo‘ri esa shoy edi, bul Ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi.[5]

Ana endi o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elida bir chufiron to‘y bo‘ldi. Xaloyiqlarni, elatyalarni to‘yga xabar qildi. shu to‘yga barcha xaloyiqlar yig‘ildi. biylar ham



to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgariqday izzatqilib, qadimgiday otini ushlamadi. Beylar: "Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi", — deb otini o'zi boylab, Maraka-maylisga kelib o'tira berdi. Beylarning ko'nglini xushlamadi, otini Ushlamadi.ostiga libos tashlamadi; osh tortdi, suzgan tovoqni choshlamadi;osh tortganda, oshning ketini-ko'tini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylarko'rib, ilgariqi izzat ko'rib yurgan odamlar, — biylar aytdi, — bizlar o'n olti urug' qo'ng'irot elining boyi ham shoyi bo'lsak, bizlar kelsak,otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar ostimizga libos tashlar edinglar, bu daf'a bizdan qanday ko'tohlik o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar. Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' qo'ng'irot elida poyga betdan turib bir chapanitob boybachchasi aytdi; — Ey , Boybo'ri bilan Boysari! Bul to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi,og'ziga odam kirib ketadi. sening bundan buyoqdagi yeydiganing oshning keti-ko'ti bo'ladi. biz sening davlatingdan bo'lib olamizmi?! Biylar bulardan bu so'zni eshitib, xafa bo'ldi. xafa bo'lib saksonTilla chufuronga tashlab, turib ketdi. Borib chechib mindi bedov otdi,ikkovi uyiga yetdi. ikkovi qildi maslahatdi, bu so'z bu ikkoviga juda botib ketdi. Boybo'ri turib aytdi: Boysari uka, qariganda bizning molimiz behisobga chiqdi, endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi? Boysari turib aytdi: Tortib olib bo'lmasa, o'g'irlab olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bizga bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?! Boybo'ri aytdi: — shu yerdan Shahimardon pirining ravzasi uch kunchalik yo'l kelar ekan, har kim borib tunar ekan, davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab iymon tilar ekan, qirqkun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, narzi-niyozimizni bersak, Shohimardon pirining ravzasini tunab, biz ham birfarzand tilab ko'rsak. Shunda bu gap biylarning ikkoviga ham ma'qul tushib, bir-biriga: "Rost aytasan", — deb narzi-niyozini olib, biylar ikkovi Shohimardon pirining ravzasiga qarab jo'namoqchi bo'lib mindi bedov otdi, narzi-niyozini olib, uch kun tinmay yo'l tortdi. Uch kun yo'l yurib, Shohimardon pirining ravzasiga yetdi, olib borgan narzi-



niyozini shayxlarga berib, biy-lar ravzani tunab yotdi. oradan bir kam qirq kun o'tdi, bir kam qirq kun deganda, ravzadan ovoz keldi: "Ey Boybo'riman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men bo'lsam, bir kun qirq kundan beri bir ayog'imda turib, sizlar uchun oraga tushib, yaratgan Xudolaringdan farzand tilayman, yaratgan Xudolaring farzand bermayman, dedi". beylar bu ovozni eshitib: "bizlar bir kamqirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, Xudoning yaratgan sheri siz bo'lsangiz bizlar uchun oraga tushib, biror farzand olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, Xudoga sherligingiz yolg'on. bor, unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik", — deb tappa tushib, ravzada turbatning ostida yotdi. qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: "Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas, egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas yolg'iz berdi. bundan borsang, farzantlaring ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman".

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli baxshi maktablarining "Alpomish" dostoni talqinlari o'zbek og'zaki epik merosining **serqirraligi va o'zgaruvchan badiiyyasini** namoyon etadi. Po'ltan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li talqinida dostonning **epik barqarorligi** ustuvor bo'lsa, Sayidmurod Panoh o'g'li maktabida **dramatizm**, Berdiyor Pirimqul o'g'li ijrosida **didaktik ma'no**, Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida esa **qahramonlik shiddati** birinchi o'ringa chiqadi.

Bu variativlik o'zbek xalq dostonchiligidagi ijodiy erkinlikni, har bir baxshi o'z maktabi orqali epik merosni qayta yaratishini ko'rsatadi. Dostonning yashovchanligi va badiiy qudrati aynan shu maktablar xilma-xilligi bilan bog'liqdir.

FOYDANALINGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2019-yil, 7-aprel. — №68(72-98) son. — B. 1.



2. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015. 24-bet
3. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015. 340 -bet
4. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015. 226-bet
5. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti. O‘zbek xalq dostonlari. Alpomish. “O‘zbekiston” nashriyoti, 1992. 5-bet